



**MEHMONXONA FAOLIYATIDA BUXGALTERIYA HISOBINI
YURITISH HAMDA AUDIT TIZIMINI YO'LGA QO'YISHNING
NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLARI**

Asqarova Lobarxon Usmanjanovna,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi assistenti, lobarhonasqarova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mehmonxona faoliyatida buxgalteriya hisobi hamda audit tizimini yuritish asoslari, xususiyatlari, tamoyillari va tizimdagi mavjud muammolar tahlili, ularning muqobil yechimlari bayon etilgan. Shuningdek, mehmonxona hisobini yuritishda xalqaro modellarni qo'llash istiqbollari keltirilgan.*

Аннотация. *В статье рассмотрены основы, особенности, принципы ведения системы бухгалтерского учета и аудита в гостиничной деятельности в Республике Узбекистан, проведен анализ существующих проблем в системе, пути их решения. Также представлены перспективы применения международных моделей в бухгалтерском учете гостей.*

Abstract. *This article describes the basics, features, principles of maintaining an accounting and auditing system in hotel activities in the Republic of Uzbekistan, an analysis of existing problems in the system, their alternative solutions. Also, the prospects for applying international models in guest accounting are presented.*

Kalit so'zlar: *buxgalteriya hisobi, audit tizimi, model, moliyaviy hisobot, xalqaro standart.*

Ключевые слова: *бухгалтерский учет, система аудита, модель, финансовая отчетность, международный стандарт.*

Keywords: *accounting, audit system, model, financial reporting, international standard.*

Kirish



Mehmonxonalar turizm infratuzilmasining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun buxgalteriya hisobi va audit tizimining to'g'ri tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Chunki mehmonxonada ko'plab xizmat turlari mavjud bo'lib, daromad va xarajatlarni to'liq, aniq hamda o'z vaqtida qayd etish zarur.

Buxgalteriya hisobi, avvalo, mehmonxona faoliyatida yuzaga keladigan daromatlarni (xona ijarasi, restoran, transport, qo'shimcha xizmatlar) va xarajatlarni (xodimlar maoshi, kommunal to'lovlar, oziq-ovqat, marketing xarajatlari) tartibga soladi. Bundan tashqari, asosiy vositalar — bino, inshootlar, mebel va texnikalar hamda aylanma mablag'lar to'g'ri qayd etilishi lozim. Bron qilish, oldindan to'lovlar va bekor qilingan buyurtmalar ham alohida hisobda yuritiladi.

Audit tizimi esa buxgalteriya hisobining to'g'riligi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshiradi. U orqali daromadlarning to'liq qayd etilishi, xarajatlarning hujjatlar bilan asoslanishi, mulklar va aktivlarning mavjudligi hamda ichki nazorat tizimining samaradorligi baholanadi. Auditning ikki shakli mavjud: ichki audit (mehmonxona menejmenti uchun) va tashqi audit (mustaqil auditorlar tomonidan).

Mehmonxona xo'jaligi xizmatlar sohasi ichida eng murakkab va ko'p funksiyali tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada amalga oshiriladigan iqtisodiy operatsiyalar xilma-xilligi, xizmat ko'rsatish jarayonining segmentlarga bo'linganligi va mijozlar bilan hisob-kitoblar tizimi buxgalteriya hisobining nazariy asoslariga yangicha yondashuvni talab etadi. An'anaviy hisob yuritish tamoyillari, masalan, ishlab chiqarish yoki savdo tarmoqlariga xos yondashuvlar mehmonxona faoliyati uchun to'liq mos kelmaydi. Shuning uchun ushbu sohada xizmatlar va xarajatlarni aniqlashtirib, ularni boshqarish va tahlil qilishga moslashtirilgan alohida yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Nazariy jihatdan mehmonxona sohasida buxgalteriya hisobi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga, audit esa xalqaro audit standartlari (ISA)ga mos ravishda tashkil etiladi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining o'ziga xos



jihatlari — mavsumiylik, ko'p xizmatlilik va oldindan buyurtmalar — hisob va auditda alohida yondashuvni talab qiladi.

Umuman olganda, mehmonxona faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish xizmatlar sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mehmonxona menejmentining samarali qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Mehmonxona xo'jaligida buxgalteriya hisobi va audit tizimini shakllantirish bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlarda turli nazariy va amaliy qarashlar mavjud.

Birinchi guruh tadqiqotlarda (Horngren, 2016; Hilton, 2019) xizmatlar sektorida hisob yuritishning xususiyatlari ta'kidlanadi. Unga ko'ra, mehmonxona faoliyatida daromadlar ko'plab xizmat yo'nalishlari bo'yicha shakllanadi va ularni alohida hisobga olish talab etiladi. Shu sababli analitik hisob yuritish va xizmat turlari kesimida daromadlarni ajratib ko'rsatish muhimdir.

Ikkinchi guruh tadqiqotlar (Collier & Evans, 2020; Kaplan, 2024) nazariy yondashuv sifatida ichki nazorat tizimining ahamiyatiga urg'u beradi. Ularning fikricha, mehmonxona sohasida naqd pul aylanmasi yuqori bo'lgani uchun moliyaviy firibgarlik xavfi ortadi. Audit jarayonida xatarlarni aniqlash va nazorat mexanizmlarini samarali qo'llash muhimdir.

Uchinchi guruh manbalar (UNWTO, 2022; OECD, 2023) xalqaro standartlarga murojaat qilib, xizmatlar sektorida buxgalteriya hisobi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida yuritilishi lozimligini ko'rsatadi. Audit jarayonlari esa Xalqaro audit standartlari (ISA)ga muvofiq amalga oshirilishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda bu soha bo'yicha bir qator olimlar (Karimov, 2020; Islomov, 2021) mehmonxonalar faoliyatida hisob yuritishning milliy standartlarga moslashuvi, soliq hisobi va moliyaviy hisobotlarda xizmatlar sektorining o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib o'tishgan. Shuningdek, amaliy ishlarda elektron hisob-kitob



tizimlari va onlayn bronlash jarayonlarining hisobotga integratsiyasi dolzarb masala sifatida ko'tarilgan.

Maqolani tayyorlashda qo'llanilgan metodologiya bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarga asoslangan:

1. Nazariy yondashuv – mavjud ilmiy adabiyotlar, milliy va xalqaro standartlar, qonunchilik hujjatlari hamda mehmonxona xo'jaligiga oid konseptual qarashlar o'rganildi.

2. Qiyosiy tahlil – xalqaro buxgalteriya va audit standartlari (IFRS, ISA) O'zbekiston milliy buxgalteriya standartlari bilan solishtirilib, mehmonxona sohasi uchun farqli jihatlar aniqlab chiqildi.

3. Amaliy tahlil – ayrim mahalliy mehmonxonalar (Toshkent, Samarqand va Buxorodagi yirik komplekslar)ning moliyaviy hisobotlari va audit amaliyoti misol tariqasida ko'rib chiqildi.

Natijalar

Mehmonxona faoliyatida buxgalteriya hisobi ko'p yo'nalishli bo'lib, bir vaqtning o'zida moliyaviy hisobotni shakllantirish (MHXS asosida), ichki boshqaruv qarorlarini asoslash (menejment hisobi), va soliq majburiyatlarini hisoblash (soliq hisobi) vazifalarini bajarishi kerak. Bu esa har bir xizmat turi - yashash, ovqatlanish, transport, konferensiya, SPA va h.k. - uchun alohida daromad va xarajat markazlarini shakllantirishni taqozo etadi. "Buxgalteriya hisobining an'anaviy yondashuvlari xizmat ko'rsatish sohasining murakkab, segmentli tuzilmasini aks ettirishda yetarli emas, shuning uchun soha uchun maxsus hisoblash va tahlil metodologiyasi talab etiladi"¹.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan "USALI - Uniform System of Accounts for the Lodging Industry" hisob tizimi mehmonxona buxgalteriyasi uchun moslashtirilgan amaliy model sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Bu tizim har bir xizmat turini alohida moliyaviy birlik sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni xizmatlar va departamentlar bo'yicha daromad va xarajatlar

¹ Баттих Р. Развитие учетно-аналитической системы организаций сферы гостиничных услуг: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2022. – 233 с.



aniqlanadi, rentabellik baholanadi. “USALI tizimi mehmonxona faoliyatida javobgarlik tamoyiliga asoslangan holda xizmat segmentlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarini mustaqil yuritish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi”².

1-jadval.

Mehmonxona faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit tizimini yo‘lga qo‘yish muammo hamda yechimlari

Hisob yuritishning o‘ziga xosligi	mehmonxonalar faoliyatida daromad va xarajatlarning xilma-xilligi (xona ijarasi, restoran, transport, qo‘shimcha xizmatlar) buxgalteriya hisobini murakkablashtiradi. Shu sababli analitik hisobni batafsil yuritish zarurati paydo bo‘ladi.
Ichki nazorat tizimining zaifligi –	ayrim mahalliy mehmonxonalarda naqd pul aylanmasi, oldindan bron qilish va elektron to‘lovlar ustidan nazorat yetarli emasligi aniqlangan. Bu esa moliyaviy xatolik va firibgarlik xavfini kuchaytiradi.
Xalqaro standartlarga moslashuv –	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va Xalqaro audit standartlari (ISA)ni qo‘llash bo‘yicha amaliy ishlar boshlangan bo‘lsa-da, ularni to‘liq tatbiq etishda qiyinchiliklar mavjud. Ayniqsa, kichik va o‘rta mehmonxonalar bu standartlarni amaliyotga joriy etishda resurs yetishmovchiligiga duch kelmoqda.
Raqamlashtirishning ijobiy ta’siri –	onlayn bronlash tizimlari, elektron hisob-kitob dasturlari va moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish mehmonxonalar buxgalteriya hisobini yuritishda shaffoflik va tezkorlikni oshirgan. Shu bilan birga, audit jarayonida ham raqamli izlarning mavjudligi xatoliklarni aniqlashni osonlashtirmoqda.

² Кубаткина Г.А. Совершенствование управленческого учета в гостиничном бизнесе: дис. ... канд. экон. наук. – Оренбург, 2012. – 154 с.



Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi	– buxgalteriya va audit sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi, ayniqsa hududiy mehmonxonalarda, asosiy muammolardan biri sifatida qayd etildi.
Audit samaradorligi	tashqi auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar moliyaviy hisoblarning ishonchliligini oshirishda ijobiy natija bergan, biroq ichki audit tizimlari ko'plab mehmonxonalarda yetarlicha shakllanmagan.

Muhokama

Tadqiqot davomida ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda mehmonxonalar faoliyati kengayib borayotgan bo'lsa-da, buxgalteriya hisobi va audit tizimini samarali tashkil etishda qator muammolar mavjud. Birinchidan, daromad va xarajatlarning xilma-xilligi sababli an'anaviy hisob usullari ko'plab holatlarda yetarli emas. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlarga asoslangan analitik hisob yuritish tizimini kengaytirish zarur.

Ikkinchidan, ichki audit tizimining zaifligi mehmonxona xo'jaligida moliyaviy shaffoflikni pasaytiradi. Mazkur muammo faqat tashqi audit hisobotlari bilan hal etilmaydi, balki korxona ichida samarali nazorat mexanizmlarini yaratish talab qilinadi.

Uchinchidan, raqamlashtirish jarayonlari sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, kichik va o'rta mehmonxonalar moliyaviy va texnologik imkoniyatlari cheklangani bois, ularda zamonaviy dasturiy vositalarni joriy etish sust kechmoqda. Shu jihatdan, davlat tomonidan subsidiya va grantlar mexanizmini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, kadrlar salohiyati masalasi ham dolzarbdir. Mehmonxona xo'jaligida buxgalter va auditor kadrlarning yetishmasligi ularning amaliy tajribasini oshirish va xalqaro tajribaga asoslangan o'quv dasturlarini joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.



Umumiy aytganda, mehmonxona sohasining buxgalteriya hisobi tizimi xizmatlarning ko'p tarmoqliligi, resurslar harakati va qaror qabul qilishdagi tezkorlik talablariga mos, moslashuvchan va integratsiyalashgan bo'lishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, sohaga xos nazariy yondashuvlarni shakllantirish va xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirishni taqozo etadi.

Mehmonxona xo'jaligi o'zining murakkab tuzilmasi va ko'p segmentli xizmat ko'rsatish xususiyati bilan boshqa xizmat turlaridan ajralib turadi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobotlarini yuritishda turli manba va funksiyalarga ega bo'lgan axborot oqimlarini bir-biridan ajratilgan holatda emas, balki yagona tizimda integratsiyalash zarurati keskin sezilmoqda. Mehmonxonalar faoliyatida moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari o'z vazifalari va foydalanuvchilari bilan farqlanadi, biroq ularning ma'lumot bazasi bir xil bo'lganligi uchun bu tizimlarning o'zaro uyg'unligi dolzarb muammolardan biridir.

Moliyaviy hisobot tashqi foydalanuvchilar - investorlar, banklar, soliq idoralari uchun mo'ljallangan bo'lib, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) yoki USALI kabi soha uchun maxsus tizimlarga asoslanadi. Boshqaruv hisobi esa ichki foydalanish uchun xizmat qiladigan va har bir xizmat turi (masalan, yashash, restoran, SPA, konferensiya xizmati) bo'yicha xarajatlar va daromadlarni tahlil qiladigan tizimdir. Soliq hisobi esa amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq davlat organlari uchun shakllantiriladi. Ushbu hisob turlarining alohida yuritilishi ko'plab kamchiliklarga sabab bo'ladi:

- ma'lumotlar takroran kiritiladi;
- axborotlar o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'ladi;
- qaror qabul qilish jarayoni sekinlashadi;
- inson omiliga bog'liq xatoliklar ortadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun integratsiyalashgan hisob modeli joriy qilinishi zarur. Bu model barcha hisob turlarini yagona axborot platformasiga birlashtiradi. "Moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobotlarini yagona tizimda



uyg'unlashtirish korxonada axborotlarning to'g'riligini oshiradi va samaradorlikni kuchaytiradi"³.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehmonxona xo'jaligida buxgalteriya hisobi va audit tizimini samarali tashkil etish turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Birinchidan, mehmonxona faoliyatining o'ziga xos jihatlari — daromad va xarajatlarning xilma-xilligi, mavsumiylik, xizmatlar hajmining tez-tez o'zgarib turishi buxgalteriya hisobini yuritishda analitik yondashuvlarni talab qiladi. Shu bois, hisob jarayonlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida yuritish zarur.

Ikkinchidan, ichki audit tizimi zaifligi moliyaviy shaffoflikka putur yetkazmoqda. Bu muammoni bartaraf etish uchun mehmonxonalarda kuchli ichki nazorat tizimini shakllantirish va ichki auditorlarning malakasini oshirish lozim.

Uchinchidan, raqamlashtirish jarayonlari sohada shaffoflik va samaradorlikni oshirmoqda. Ammo kichik va o'rta mehmonxonalar uchun texnologik imkoniyatlar yetarli emas. Shuning uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish bo'yicha qo'shimcha dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

To'rtinchidan, kadrlar salohiyatining pastligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Mehmonxona buxgalteriyasi va auditiga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash, ularni xalqaro tajribaga mos dasturlar asosida o'qitish sohada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mehmonxona faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olishi zarur:

- xalqaro standartlarni amaliyotga keng joriy etish;
- ichki nazorat tizimini mustahkamlash;
- raqamlashtirish va avtomatlashtirishni rivojlantirish;

³ Баттих Р. Развитие учетно-аналитической системы организаций сферы гостиничных услуг: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2022. – 233 с.



- kadrlar malakasini oshirish va mutaxassislarni tayyorlash.

Shunday qilib, mazkur yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish O‘zbekistonda mehmonxona xo‘jaligining moliyaviy barqarorligini, investitsion jozibadorligini va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. “Mehmonxona xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”. Toshkent, 2022.
2. Баттих Р. Развитие учетно-аналитической системы организаций сферы гостиничных услуг: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2022. – 233 с.
3. Кубаткина Г.А. Совершенствование управленческого учета в гостиничном бизнесе: дис. ... канд. экон. наук. – Оренбург, 2012. – 154 с.